

MATNNI PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA TAHLIL QILISH.**Abduvaliyeva Madina***Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

Insoniyat jamiyati vujudga kelgandan buyon ular o'rtasidagi munosabatlar orasida eng muhimi va eng murakkabi lisoniy aloqalardir. Ularni, to'g'rirog'i, o'sha aloqalar mohiyatini o'zida aks ettirgan matnlarni o'rganish, ularni tuzish qonun-qoidalarini tahlil qilish ham amaliy, ham nazariy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Hayotimizda sodir bo'layotgan islohotlar hech bir sohani chetlab o'tayotgani yo'q, jumladan, tilshunoslik fani ham bugungi kunda tilning barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Tilda bir qator yangi yo'nalishlarning maydonga kelishi (kompyuter lingvistika, psixolingvistika, matematik lingvistika, sotsiolingvistika kabi) va ularni tadqiq etish bilan bog'liq holda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'lami ham bundan dalolat bermoqda. Matn tilshunosligi ham tilshunoslik sohasidagi yangi yo'nalishlardan biri sanaladi.

Matn obyektiv orliqda mavjud bo'lgan narsa-hodisa yoki tushunchalarning til birliklari orqali ifoda etishning ko'rinishi bo'lib, til birliklari lug'at tarkibidan tanlab olish nihoyat chuqur ma'nodagi shaxsiy faoliyat hisoblanadi. Bunda shaxs o'z ixtiyori va ayni damda ixtiyoridan tashqari holatda o'zining shaxs xususiyatlarini namoyon etadi. Badiiy matnlar esa alohida xarakterli bo'lib, bunda yozuvchining qahramon shaxsini yetarli darajada ochib berishga bo'lgan harakatlari natijasida matnda shaxs xususiyatlarini ko'rsatuvchi vositalar alohida e'tiborga olingan holda yetkazib beriladi. Ayni maqsad va vazifalardan kelib chiqib badiiy matn shaxs xususiyatlarini aniq va ravshan aks ettiruvchi ifoda ko'rinishiga ega bo'ladi.¹¹ [2.470] Nutqiy jarayonda matnni uni tashkil etuvchi elementlar (fonetik, leksik, morfemik birliklar) belgisiga ko'ra emas, balki o'zaro aloqador qismlarning yaxlit tuzilmasi sifatida tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Badiiy matnni lingvistik va psixolingvistik jihatdan tahlil qila olamiz. Bunda tadqiqotchining tadqiqot obyekti bo'lgan matnga qay tarzda qarashi muhim ahamiyatga ega. Matnni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganishda tadqiqotchini birinchi navbatda matnning umumiy mohiyatini va emotsional mazmunini ochib beradigan til vositalari qiziqtiradi. Matnni psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishda esa, matnni yaratadigan va uni qabul qiladigan individning til va tafakkur faoliyati, ya'ni "til sistemasi elementlari yordamida haqiqatni ongda aks ettira oladigan til shaxsi" diqqat e'tiborda bo'ladi. Agar tilshunoslik matnga "ma'lum til faktlarini kuzatishga xizmat qiladigan material, real aytilgan jumlar yoki jumlar yig'indisi" sifatida qarasa, psixolingvistika matnga "kommunikatsiya aktining shakli, kommunikatsiya predmetining zaruriy tarkibiy qismi, muallif va tinglovchi" sifatida qaraydi. Bunda barcha matn aniq kommunikativ holat

¹¹ Qurbonova S. Nutqda til vositalari orqali shaxs xususiyatlarining namoyon bo'lishi.

ramkasida o'rganiladi, matnlarning shakli va mazmuni kommunikatsiyaning ishtirokchilari – individlarning psixologik xususiyatlari orqali aniqlanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan matn yaratish va uning mazmunini idroki individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – aniq bir shaxsning psixologik xususiyatlari asosida aniqlanadi.¹² [1.64] Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – resipiyent (tinglovchi) dan iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etishi unda xususan shaxs omilining rolini chuqur o'ganishni taqozo etadi. Rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin matnning psixolingvistik xususiyatlari yoritilgan “Основы психологической диагностики (модели мира в литературе)” nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqida nutq yaratilish jarayonida nutq ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham bo'lishini, har xil matn ortida har xil psixologiya turishini aytib o'tgan. O'quvchining badiiy asar haqidagi o'z talqini bo'lishi mumkin. Bu talqin matn bilan birga kitobxonning psixologiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, qalami o'tkir turk yozuvchilaridan biri Ahmad Lutfiy Qozonchining “So'nggi to'fon” asarini tahlil qilib chiqib, ushbu asar bizning psixologiyamizga qay darajada ta'sir ko'rsatganini, asar yuzasidan o'zimizda qanday shaxsiy fikrlar paydo bo'lishini ko'rib chiqamiz. Asar oddiy tilda yozilgan, orticha falsafabozlik qilinmagan. Tasvirlar shunday berilganki, asar voqealari ichida yashaymiz.

- Dada...

Ammo bu yerda bolani eshitguvchi yo'q edi. Tursun o'g'lining gapini bo'ldi:

- Ming'irlama. Ichsang, yaxshilikcha ich, bo'lmasa, qorangni o'chir!

- Onam yuborgan edilar, dada!

- Yana nima kerak unga? Bir chaqa pulim yo'q!..

- Uy juda sovuq, dada, yoqishga hech narsa qolmadi.

- Menga desa, qotib o'lmaysanlarmi, senlardan qutulaman. Borib onangga yetkaz, muzlab o'lsin, o'lmasa, o'zim borib o'ldiraman.

- Dadajon...

Tursun qo'zib ketdi. Sapchib o'rnidan turgan edi, Hasan birdan orqaga tisarildi va eshik tomon yo'naldi. Bir kaltakdan qutulib qoldi.¹³ [3.306]

“So'nggi to'fon” asaridan olingan ushbu parchada Hasan ismli bolakayning insofsiz, ayoli va bolasiga hech ham g'amxo'rlik qilmaydigan noinsof otasi bilan suhbatini ko'rish mumkin. Hasanning otasi qishning sovuq, izg'irinli kunlarida ham oilasiga mehr ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish o'rniga pulini mayxonada may ichishga sarf qilib yuradigan

¹² Зорькина О.С.О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. –Новосибирск, 2003. – С.205-210.

¹³ Ahmad Lutfiy Qozonchi. Eng sara asarlari. “Adabiyot uchqunlari” T., 2018.

“inson”. Hasan bu yerga kelguncha chiqmagan jondan umid deganlaridek, zor yig’lab bersa, balki otasi uyni isitish uchun bir nima topib berar, bu ishni chorasini topishga harakat qilib qolar degan xayol bilan ovungan edi. Ammo ota tomonidan o’g’ilga aroq berib ichishi uchun majburlanishi, “Menga desa, qotib o’lmaysanlarmi, senlardan qutulaman. Borib onangga yetkaz, muzlab o’lsin, o’lmasa, o’zim borib o’ldiraman” degan gapni eshitish bola ko’nglini chil-chil bo’lishiga olib keladi. Shunday otadan qanday yaxshilik kutish mumkin?

- Ona biznikiga ko’mir kelishi kerakmidi?

- Ha, o’g’lim, qara, ko’mir kelibdi.

Hasan birdan onasini quchib oldi va:

- Yashasin, ko’mir, nahotki ko’mir keldi!.. deb qiyqirib yugura boshladi. Hasan kunini ko’rmagan bolalar uning quvonchini tushuna olmaydi. Ammo qishning izg’irini jon-jonidan o’tib kegan bolalar emas... [3.310] O’z otasi tomonidan ko’rsatilmagan muruvvat yetti yot begona qo’shni tomonidan ko’rsatilgani Hasanning ko’nglida alamli savollar paydo qildi. Izg’irin jonidan o’tib ketgan inson uchun uyiga ko’mir kelib issiq xonada o’tirish bu chinakam baxt. Endi Hasan qishning izg’iridan qo’rqmaydi, tashqaridagi shamolning uvillashi unga musiqaday eshitaladi.

Hasan pechka yonida o’tirib dars qilar ekan, hademay kelib qoladigan otasini o’ylardi. Ochlik bilan sovuqdan ezilgan bu ikki bechorani azoblovchi ota hech bo’lmaganda shu kecha kelmasaydi. Hasan otasiz yashashni shu qadar istardiki... [3.310-311] Agar Hasan qalbiga til bitsa, “Bo’yniga osilib, erkanib suykadigan otani istayman” derdi. Otasi bo’la turib otaga zor ko’ngil... Chunki inson bolasi ona suti ona mehri ehtiyojmand bo’lganiday, ota mehr-muhabbatiga ham muhtoj bo’ladi. Otasidan ko’rgan zulm shu darajada ulkanki, u otasiz yashashni afzal ko’radi. Muallimasi tomonidan Hasanga olib berilgan o’zidan ham avaylab, ardoqlab kiyayotgan etigini, qo’shnisi sotib olib bergan ko’mirni ichkilikka berilgan otasi tufayli qimorda yutqazib qo’yilishi kitobxon psixologiyasida ham otaga bo’lgan nafratni kuchaytiradi. Asarni o’qir ekanmiz, Hasanning yoshligidan tortib ulg’aygunga qadar otasi tomonidan xo’rlanishini, o’z padari tomonidan o’g’rilikka undashini, nafs bilan olib borilgan muhorabalarni, o’smirlik yoshining bosimlarini va Hasanning bu sinovlardan qanday o’tganini, begona insonlardan ko’rgan yaxshiliklari ko’ngliga qanday kechinmalar solganini, kelajakda qanday qilib chin ma’noda muslim, xushxulq inson bo’lib yetishganini tushunib yetamiz. Har nega qodir buyuk Ollohning Tursundek yomondan Hasandek oppoqni yaratgani, tikondan gul o’stirish kabi mo’jiza faqat unga xosligini tushunib yetamiz.

Yozuvchining o’ziga xosligini yaqqol ko’rsatib turadigan narsa bu uning tilidir. Badiiy matn tilining o’ziga xosligi personajlarning ruhiy kechinmalari, iztirobu shodliklari, ko’rgan kechirganlari, intim tuyg’ularining qay tarzda aks ettirishda ko’rinadi. Badiiy adabiyot tilida o’sha asar yaratuvchisining o’ziga xos individual xususiyatlari ko’rinar

ekan, yozuvchinng uslubi ikki muhim nuqtada idrok etish uslubi va ifoda etish uslubida namoyon bo'ladi. Yozuvchining dunyoqarashi, o'y fikri, uning tushunish darajasi, yangilik – ixtirosi uning asarlarida badiiy til orqali yuzaga keladi.¹⁴ [4.51]

“Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da: “Bizning uyga o'g'ri keldi”. G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikin?.”¹⁵ [5.165]

Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib ho'kizdan xabar oldi. O! Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.¹⁶ [6.291]

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o'tirishibdi.¹⁷ [7.209]

Uch mashhur asarlardan olingan parchalar ustida o'tkazilgan ixcham tadqiqotlarimiz produtsient (so'zlovchi) ning matnga, matnning retsipient (tinglovchi) ga, produtsientning mashhurligi, insoniy fazilatlarining bevosita retsipientga ta'siri va mana shu ta'sir natijasida matnga munosabatning shakllanishiga olib kelishini isbotladi. Ushbu asarlarni o'qigan har bir o'quvchi uchun keltirilgan parchalar orqali qaysi asar haqida gap ketayotganini topish qiyin emas. Bu matnlar ularga maktab darsliklari orqali tanish. Bu tajriba jarayonida o'zbek tili guruhida o'qigan har qaysi bola hech adashmay yuqoridagi parchalar qaysi muallifga tegishli ekanini topa oladi. Endi bu tajribani rus guruhlarida sinab ko'rilsa, o'zbek tili guruhlari kabi yuz foiz natijaga erishilmaydi. Avval, yozuvchilarning ijodi, uslubiyati, o'ziga xos qirralari haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi, keyin esa yuqoridagi asar parchalari qaysi yozuvchiga tegishli ekanligi so'raladi. O'quvchi ongida yozuvchining ijodiy o'ziga xosligi shakllanib, muallif “til” idan qaysi asar kimga tegishli ekanligini topa oladi.

O'zbek tilidagi nasriy asarlarni kuzatish shundan dalolat beradiki, poetik kommunikatsiyani amalga oshirishda tadqiqotchilar tomonidan “subyektiv-tahliliy” deb nom olgan usul juda ko'p qo'llanadi. Mazkur strategiya real voqelikni modellashtirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda matn muallifining referentni til unsurlari orqali tasvirlashdan ko'ra, unga bo'lgan subyektiv munosabatni ifodalash maqsadi ustunlik qiladi. Bunday usulning muhim xususiyati shundaki, unda o'quvchi omili

¹⁴ Boboxanova Dilorom Psixolingvistika fanidan ma'ruzalar matni. Namangan-2019.

¹⁵ G'afur G'ulom Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

¹⁶ A.Qahhor. Asarlar. 5-jildlik. 1-j. T., 1987.B. 291.

¹⁷ O'.Hoshimov. O'zbek adabiyoti darslik – majmua. 6-sinf. T., 1997. B. 209.

yuqori darajada amal qiladi. Subyektiv-tahliliy usul asosida yaratilgan matnlarning kognitiv va psixologik asosida ko'p hollarda ikki vosita – o'xshatish va tasavvur qilish harakatlari yotadi. Bunda asosiy maqsad – muallif o'zi tasvirlayotgan voqea-hodisa, shaxs yoki predmetning belgisini o'xshatish yo'li bilan yanada aniq tasvirlash va o'quvchi tasavvurida obrazli manzarani yuzaga keltirishdan iborat. Matnning asosiy mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi-matn tinglovchi qismdan iborat nuqtayi nazardan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Bundan ko'rinadiki, badiiy asarni o'qish jarayonida ham kitobxon ongida voqealar rivoji shakllanib turadi. Yozuvchining fikriga o'zining shaxsiy munosabatini bildiradi. Bu esa matn tahlil etilishining psixolingvistika bilan bog'liqlik tomonidir. Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi ham markaziy o'rinlardan birini egallaydi. "Lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo'lgan ichki jarayondir". U muloqotning eng oliy birligi bo'lgan matn yaratilishida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Oddiy matnlarni ham, badiiy matnlarni ham yaratishda va tushunishda psixolingvistika muhim ahamiyatga ega. Matnni qabul qiluvchi boshqa tinglovchilar va hatto muallifning o'zi anglab yetmagan fikridan ham farqli bo'lgan shaxsiy talqinini yaratishi mumkin. Bu kitobxonning psixologik qobiliyatiga, tafakkur boyligiga bog'liq. Ushbu tahlillar orqali matnning asosiy mohiyatini tushunib yetishda ham psixolingvistikaning roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Qurbonova S. Nutqda til vositalari orqali shaxs xususiyatlarning namoyon bo'lishi // "Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации" Материалы II Международной научно-практической интернет-конференции. Переяслав-Хмельницкий. – 2015.
2. Зорькина О.С.О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003ю – С.205-210.
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Eng sara asarlari. "Adabiyot uchqunlari" – T .: 2018.
4. Boboxanova Dilorom Psixolingvistika fanidan ma'ruzlar matni. Namangan-2019.
5. G'afur G'ulom Tanlangan asarlar. – T .: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
6. A.Qahhor. Asarlar. 5 jildlik, 1-j. T., 1987.
7. O'.Hoshimov. O'zbek adabiyoti darslik-majmua. 6-sinf. T., 1997.